



UDK:61.577.07

Dostonjon TOSHMURODOV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti asisstanti
E-mail: dostonjon.toshmurodov@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, PhD M.Rahmatova taqrizi asosida

TALABALARNING BIOKIMYO FANIDAN KASBIY BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODELİ

Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot oliy talim muosalarida talabalarning biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modeli, kasbiy faoliyatga tayyorlashni shakllantirishning pedagogik xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan. Sogʻliqni saqlash tizimida taʼlimning eng muhim maqsadi – mutaxassisga nafaqat zaruriy tayyorgarlik, balki butun kasbiy hayoti davomida rivojlantirishni davom ettirish uchun koʻnikma va malakalar bazasini taʼminlashdir.

Kalit soʻzlar: Biokimyo, tibbiyot, bilimlarni rivojlantirish modeli, integratsiya,

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ПО БИОХИМИИ

Аннотация

В данной статье говорится о модели развития профессиональных знаний студентов по биохимии в высших медицинских учебных заведениях, педагогических особенностях формирования подготовки к профессиональной деятельности. Важнейшая цель образования в системе здравоохранения – предоставить профессионалу не только необходимую подготовку, но и базу навыков и компетенций для дальнейшего развития на протяжении всей профессиональной жизни.

Ключевые слова: Биохимия, медицина, модель развития знаний, интеграция,

MODEL OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE DEVELOPMENT OF STUDENTS IN BIOCHEMISTRY

Annotation

This article talks about the model of development of students' professional knowledge of biochemistry in higher medical educational institutions, pedagogical features of formation of preparation for professional activity. The most important goal of education in the healthcare system is to provide the professional not only with the necessary training, but also with the base of skills and competences to continue developing throughout his professional life.

Key words: Biochemistry, medicine, knowledge development model, integration,

Kirish. Biokimyo, koʻp tarmoqli fan sohasi, boshqa fiziologiya fanlari orasida markaziy oʻrin tutadi. Koʻpgina kasalliklarga toʻgʻri tashxis qoʻyishda molekulyar biokimyo bilimlari va yangi klinik va molekulyar biokimyo usullari juda muhimdir. Anʼanaviy biokimyo kurslarining asosiy maqsadi talabalar uchun maʼlum mexanizmlar va kimyoviy tuzilmalarni yodlash boʻlsa-da, bugungi kunda bu tushuncha yangi oʻqitish vositalari va usullari bilan oʻzgarib bormoqda.

Tibbiyot fakulteti talabalariga biokimyo fanini qanchalik oʻrgatish kerakligi masalasi tibbiyot talabalariga biokimyon oʻqitish metodikasi (muammoli oʻqitish, interfaol tizim, guruhli taʼlim dasturlari va boshqalar) va biokimyo kurslarining mazmuni muhokama qilinishi kerak boʻlgan masaladir. biokimyogarlar tomonidan muhokama qilinadi. Shimoliy Amerika va Gʻarbiy Evropa mamlakatlarida ishlaydigan tibbiyot va taʼlim qoʻmitalari yangi muqobil taʼlim dasturlariga eʼtibor qaratadilar. Biokimyoviy taʼlim sifatini oshirish uchun xalqaro Biokimyo ittifoqining taʼlim qoʻmitasi (IUB-EC) biokimyo oʻqitish metodikasi boʻyicha muntazam yigʻilishlar tashkil etadi. Mamlakatimizda bu borada buxoro innovatsion tibbiyot instituti “Tibbiy taʼlimda innovatsion texnologiyalar: yutuqlar, muammolar va yechimlar” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, va “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi oʻrni-kecha,bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari buxoro davlat tibbiyot instituti tomonidan 2022-yilda oʻtkazilgan va keyingi yillarda ham davom etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kasbiy-pedagogik bilimlarini rivojlantirish faoliyatini ishlab chiqishda har bir malaka darajasi uchun zarur va yetarli psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni yaratish mumkin. Kognitiv

darajadagi muammoli vaziyatli topshiriqlar K.M.Xalikov, M.A.Danilova, V.N.Donsov, V.I.Zagvyazinskiyning fikriga koʻra, biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelilaridan foydalanish kerakligini takidlagan.

Tahlil va natijalar. Ilmiy tadqiqotlarda model asosan, pedagogik jarayon va natijani samaradorligiga erishishga xizmat qiladi. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelini samarali tashkil etish tanlangan yondashuvlar, shart-sharoitlar bilan oʻzaro bogʻliq.

Modelning tashkiliy-tuzilmasi maqsadli, mazmunli, tashkiliy pedagogik va natijaviy bloklardan tashkil topgan:

maqsadli blok-model elementlarining tuzilish strukturasi oʻrganilayotgan jarayonning asosi boʻlgan;

ijtimoiy buyurtma- raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

ilmiy tadqiqot ishlari tahlili va kuzatuvlar jarayonida biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish, muammoli taʼlim asosida kasbiy bilimlarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning modeli funksional mavjud boʻlgan toʻrtta tuzilmani oʻz ichiga olishi aniqlandi. Davlat taʼlim standarti, malaka talablari, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari, tanlov fanlaridan kelib chiqib muammoli taʼlim asosida talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantirishni qamrab oladi.

Maqsadli blok esa - biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish boʻyicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazmunli blok-modelda biz qoʻyidagi vazifalarni belgilab oldik:

●vazifalarni biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish omillarini oʻrganish.


●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayoni modelini takomillashtirish.

●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlanganligini baholash mezonlari va daraja ko'rsatkichlari hamda kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish.

●biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modelining asosiy tamoyillari.

Tibbiyot oliy ta'lim tizimida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish tamoyili jamiyat va shaxs maqsadlarini birlashtirish zarurligini ifodalovchi ta'limning yetakchi tamoyili bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini va biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlanishini belgilaydi.



1-rasm. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish modeli

Fanlarning o'zaro integratsiyalashuv tamoyili akademik fanlarning birligini nazarda tutadi (fizologiya, gestaltologiya, farmakologiya va mutaxassislik fanlari) biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantiradi;

Mujassamlik tamoyili – darslarda kasbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarda barcha tarkibiy qismlarning birliklarini ta'minlaydi (o'quv jarayoni, tayyorgarlik va o'quv ishlari).

Modellash tirish tamoyili – kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayonining real harbiy-ahloqiy, kasbiy va xizmat ko'rsatish muammolarini aks ettiruvchi vaziyatlar modellari bo'lishi kerakligiga asoslanadi.

Propedevtika tamoyili-o'qitishning proaktiv xususiyatini amalga oshirishni, biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish faoliyatida sodir etishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni muhokama qilishni nazarda tutadi.

Uzluksizlik, intensivlik, algoritmik tamoyillari biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishi, mantig'ini va ketma-ketligini, jadal ravishda harakatlanish dinamikasini belgilaydi.

Kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirish tamoyili- biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishning texnologik jarayondagi modeli sifatida o'quv jarayonining tarkibiy qismida birinchi, ya'ni asosiy

narsa – texnologik jarayonlar – ta'lim mazmunining o'zaro ta'siri hisoblanadi. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish va keyinchalik ta'lim faoliyatida esa (o'qituvchilik faoliyati) ni boshqarish usullari bilan mashg'ul bo'ladi;

Refleksivlik tamoyili-subyektning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabatining xususiyatlarini, bu o'z-o'zini anglash va o'zini tahlil qilish, boshqa insonlarning u haqidagi fikrini va birgalikdagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi ta'lim jarayoni va shartlari, bo'lajak tibbiyot xodimlarini bilimga bo'lgan ehtiyojlari, ularni qondirish imkoniyatlari, ularning shaxsiy fazilatlarini va kasbiy bilimlari va pedagogik faoliyatda ularni amalga oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq ideal g'oyalarni doimo o'zaro bog'laydi;

Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishda pedagog shaxsiga ta'lim jarayonini moslashtirish tamoyili. Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi tashqarisidagi hayotda bo'lajak tibbiyot xodimlari faoliyat turiga mansub bo'lib, ularni o'zlashtiradilar, ijtimoiy tajribani o'rganadilar. O'quv jarayonining samaradorligi uchun ta'lim mazmuni va bo'lajak tibbiyotchilar tomonidan o'zlashtirilgan boshqa faoliyat turlarining

integratsiyalashuvini ta'minlash zarur.

Turli pedagogik va ta'lim jarayonlarni boshqarishda o'qituvchilik faoliyatini tashkil qilish tamoyili – bu ta'lim faoliyati, ta'lim materiallari mazmuni va bo'lajak tibbiyot xodimlarida o'zaro kommunikatsiya aloqasi bo'lib, bo'lajak tibbiyot xodimlarini bir darajadagi ta'limdan ikkinchisiga yuksaltirishga olib keladi. O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi, birinchi navbatda, faoliyat usullari va tartibi bo'lajak tibbiyot xodimlar faoliyatining usullari va tartibi bilan bog'liq bo'lishi kerak. O'quv jarayonini loyihalashda subyektlar faoliyatining tizimli muvofiqligi tartibga soluvchi talabni bajaradi;

Ta'lim jarayonida individuallik tamoyili-bo'lajak tibbiyot xodimlar o'z loyihasi amalga oshiradigan ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, uning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, kasbiy yo'nalish, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, xulq-atvor, ruhiy holatlar, shaxsiy xususiyatlar, o'z-o'zini anglash, shaxsiy uslub, ijodkorlik va boshqalar namoyon bo'ladi. Kasbiy-pedagogik bilimlarini rivojlantirishda o'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi amalga oshirishi kerakligini hisobga olgan holda ishlab chiqadi;

Psixologik yordamni loyihalash tamoyili-qulay psixologik iqlim prinsipi. O'quv jarayonida psixologik iqlim ijobiy o'rganish motivatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tamoyil qatnashchilarda ta'lim jarayoni davomida o'zaro muloqotga qaratilgan ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi;

Integrativlik va dinamizm tamoyili-kasbiy-pedagogik kasbiy bilimlarini rivojlantirishga qodirlik, tashkiliy, psixologik, pedagogik, didaktik va shaxsiy, harkatchanlik, tezlik, taraqqiyotning yuqori sur'atlari kabi omillarni tizimlashtirishga yordam beradi. Modelni qurish tamoyillarini hisobga olgan holda, nazariy va amaliy mashg'ulotlar turli bosqichlarda (2-4 kurslarda) pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonini aniqlash uchun imkoniyatlardan maqbul foydalanish mumkin bo'lgan holda tashkil etilishi lozim;

Faollik tamoyili-inson ta'lim olishining haqiqiy, chinakam mohiyati o'zining aqliy faoliyati natijasida

bilimning yangi-yangi sir-asrorlarini mustaqil ravishda anglab olishidir. Bo'lajak tibbiyot xodimlar o'z harakati bilan fanlarni muntazam o'rganadi va o'zlashtiradi. O'quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ularning o'zlari fanga qiziqishi, uni bilishga harakat qilishi va intilishi bilan belgilanadi. Buning uchun bo'lajak tibbiyot xodimlar darsga faol qatnashishi lozim;

Ilmiylik tamoyili-bu tamoyil har qanday o'quv predmeti, o'quv materiali fanining zamonaviy yutuqlariga tayanishi lozimligini ko'rsatadi. Ushbu tamoyil, eng avvalo, o'quv dasturlar, o'quv qo'llanmalarni yaratish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiylik tamoyiliga muvofiq har yili fanlarning ishchi o'quv rejalari va o'quv materiallarini takomillashtirish, muammoli mashg'ulot o'tkazish talab etiladi. Ilmiylik shakli va fanning tili o'rganiladigan predmetlar xarakterining asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadilar. Ilmiy axborotni ifoda etilish aniqligi va qat'iyligi, uni ifoda etish tizimi va aloqalariga katta e'tibor qaratishni talab etadi;

Natijaviy blokda-biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mezonlar kasbiy bilimlarni rivojlantirish motivatsion komponenti; biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirish o'zini-o'zi baholash komponenti; kreativ sifatlarni rivojlantirish amaliy komponentlaridan iborat. Rivojlanish darajalari: yuqori, o'rta, past darajalar bilan belgilanadi. Demak, muammoli ta'lim asosida biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantiriladi.

Muammoli ta'lim, metodlarini qo'llash, bo'lajak tibbiyot xodimlarining metodlarni tanlash jarayoniga e'tibor qaratishida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchilar ko'pchilik holatlarda qo'llanilgan metodlarni natijasini tanqidiy baholashni bilmaydilar. Ta'lim oluvchilarga metodlarni qo'llash bilan olingan natijalarni solishtirib ko'rishi lozim bo'lgan rivojlantiruvchi metodlarni birin-ketin tavsiya etishadi. Yechim natijasi ijobiy bo'lganda ta'lim oluvchi metodlarni tanlash va qo'llash ustida ishlashni to'xtatadi.

Xulosa. Biokimyo fanidan kasbiy bilimlarini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarini qo'llashda aqliy faoliyatning umumlashgan usullarini qo'llash va ta'lim oluvchilarni mustaqil ravishda metodlarni saralashga o'rgatib borish ijobiy samara beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son, "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni
2. Tashmurodov Dostonjon Asatullo O'g'li. (2024). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR TEACHING BIOCHEMISTRY BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(01), 26–30. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-01-05>
3. Toshmurodov D.A. Biokimyo fanini vaziyatli masalaga asoslangan ta'limdan foydalanib o'qitish imkoniyatlari TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2024/ 1 –SON 70-73
4. Asatullo ug'li, T. D., Uzakovich, J. M., & Kenjayevich, B. A. (2022). Study of Changes in Calciferol in Eggs in Depending on the Season of the Year. *Middle European Scientific Bulletin*, 24, 310-314.
5. Saidmurodova Z.A., & Toshmurodov D.A. (2021). NUKLEIN KISLOTALAR KIMYOSI, ULARNING TUZILISHI VA AHAMIYATI. *Vestnik magistratury*, (2-1 (113)), 10-12.
6. Ergashev A.J. Oliy ta'limda yadro texnologiyalari fanini o'qitishda didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash texnologiyasi *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi-2022-yil_7-son* 353-359 b
7. Asatullo O'g'li, T. D. (2024, February). CRITERIA AND FACTORS OF TEACHING BIOCHEMISTRY ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN HIGHER MEDICAL EDUCATION INSTITUTIONS. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 3-6).
8. Sattorova S.X., Q.M.Xolikov "Oliy ta'lim muassasalarida biokimyo faning ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi" maqolasi *Xalq so'zi gazetasi* -2023. №1. 10b.
9. Mamadaliyeva Z.R. "Virtual laboratory Information In Education A Specific Factor Of The communication System In Form". *Eurasian Scientific Herald Journal. Germany. Ausgabe. – №3, 2022. – pp. 92-95. (13.00.00; №1. 2022).*
10. Mamadaliyeva Z.R. "Determination of alanine in blood on a biochemical analyzer by virtual laboratory method". *Thematics Journal of Chemistry* 2022. Impact Factor 7.3 ISSN: 2250-382X -№5. -B. 23-27.